

O'ZBEKISTON – IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA

Djalgasova Asalxon Azat qizi

Toshkent Farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Abdujalilova Nafosat Umidjon qizi

Toshkent Farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti Farmatsiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

G'ulomova Muslima Zarifjon qizi

Toshkent Farmatsevtika instituti Sanoat farmatsiyasi fakulteti Sanoat farmatsiyasi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Nuraliyeva Xafiza Otayevna

Toshkent Farmatsevtika insituti Tibbiy, biologik fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasida mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan chuqur va ko'lamli o'zgarishlarni kompleks yondashuv asosida tahlil etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda respublikaning strategik ahamiyati, uning front ortidagi tayanch hudud sifatidagi o'rni, shuningdek, urush taqdirini hal etishda o'zbek xalqining fidokorona hissasi tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va zamonaviy ilmiy qarashlar asosida keng yoritiladi. Maqolada urush yillarida respublikaga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalarini, ilmiy-tadqiqot muassasalari va madaniy markazlarning faoliyati, ularning qisqa muddat ichida ishlab chiqarish quvvatini tiklashi hamda front ehtiyojlarini ta'minlashdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi sohasidagi safarbarlik, xotin-qizlar va yoshlarning mehnat frontidagi jasorati, xalqning og'ir sinovlarga bardosh berishdagi matonati alohida e'tibor markazida turadi. Tadqiqotda inson omili — urushning oddiy odamlar taqdiriga ko'rsatgan ta'siri, oilaviy ajralishlar, yo'qotishlar va ruhiy kechinmalar badiiy-ilmiy uyg'unlikda talqin qilinadi. Shu orqali o'zbek xalqining sabr-toqati, bag'rikengligi va yuksak insoniy fazilatlarini tarixiy jarayonlar fonida ochib beriladi. Maqola, shuningdek, urush yillarida shakllangan millatlararo hamjihatlik, evakuatsiya qilingan xalqlarga ko'rsatilgan insonparvarlik yordami va bu jarayonning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'sirini ham yoritadi. Tahlillar asosida O'zbekistonning urush davridagi o'rni va roli yangi konseptual qarashlar nuqtayi nazaridan qayta baholanadi.

Kalit so'zlar: ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston tarixi, sobiq ittifoq davlatlari, front orti, qishloq xo'jaligi, mehnat fronti, o'zbek xalqining fidokorligi, millatlararo hamjihatlik, madaniy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar

Kirish: XX asr insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan sinovlar, keskin burilishlar va ulkan fojialar davri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ana shunday murakkab va tahlikali davrlarning eng yirigi bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi nafaqat jang maydonlarida, balki front ortida joylashgan hududlar hayotida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu jarayonlardan O‘zbekiston ham chetda qolmadi; aksincha, u sobiq ittifoqning muhim strategik tayanch hududlaridan biriga aylandi. Urush yillarida respublika iqtisodiyoti, sanoati va qishloq xo‘jaligi to‘liq safarbar qilinib, front ehtiyojlariga yo‘naltirildi. Minglab sanoat korxonalari va ilmiy muassasalarning O‘zbekiston hududiga evakuatsiya qilinishi mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini keskin oshirdi. Shu bilan birga, millionlab insonlarning taqdiri o‘zgardi: erkaklarning katta qismi frontga jo‘natildi, ularning o‘rnini esa xotin-qizlar, keksalar va yoshlar egallab, og‘ir mehnat yukini zimmasiga oldi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, urush yillarida O‘zbekiston xalqi tomonidan namoyon etilgan matonat, fidoyilik va insonparvarlik bugungi kunda ham yuksak qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, turli hududlardan evakuatsiya qilingan aholiga ko‘rsatilgan mehr-oqibat va bag‘rikenglik o‘zbek xalqining ma’naviy qiyofasini yorqin namoyon etgan tarixiy hodisalardan biridir. Ushbu maqolaning maqsadi — urush yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish, respublikaning g‘alabaga qo‘shgan hissasini ochib berish hamda bu davrning tarixiy ahamiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida yoritishdan iboratdir. Shu orqali o‘tmish saboqlarini chuqur anglash va ularni bugungi taraqqiyot jarayonlari bilan uyg‘un holda talqin etish imkoniyati yaratiladi.

Asosiy qism: 1941-yil 22-iyun yakshanba kuni tongda fashistlar Germaniyasi o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnomani buzib, SSSR hududi ga bostirib kirdi. Germaniya bilan birga uning ittifoqchilari — Italiya, Finlandiya, Vengriya, Ruminiya va Bolgariya ham urushga qo‘shildi. Ushbu urushga majburan tortilgan barcha respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston xalqlari uchun ham og‘ir sinovli kunlar boshlandi. Urushning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekistonda aholi o‘rtasida yig‘ilish va mitinglar tashkil etildi. 1941-yil 22-iyundayoq Toshkent to‘qimachilik kombinati ishchilari o‘zlarini Vatan himoyasiga safar bar qilingan deb hisoblashlarini bildirdilar. 23–24-iyun kunlari Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Nukus va boshqa shaharlarda o‘tkazilgan yig‘ilishlarda minglab o‘zbekistonliklar harbiy komissarliklarga murojaat qilib, frontga ko‘ngilli sifatida jo‘natishlarini so‘rab arizalar bera boshladilar. Urushning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekistonning barcha moddiy va ma’naviy resurslari front ehtiyojlari uchun safarbar etildi. Umumiy harbiy safarbarlik e‘lon qilinishi bilan bir qatorda, front orqasini mustahkamlash yuzasidan shoshilinch choralar ko‘rildi. Xalq xo‘jaligini qayta qurish va harbiy holatga moslashtirish davlatning ustuvor dasturiga aylandi. O‘zbekiston iqtisodiyoti zudlik bilan front manfaatlariga bo‘ysundirildi. Mavjud sanoat korxonalari urushning ilk kunlaridanoq

mudofaa uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. Bu jarayon asosan «harbiy-kommunistik» usullar, ya'ni qat'iy markazlashgan boshqaruv orqali amalga oshirildi. 1941-yil 26-iyundan boshlab ishchi va xizmatchilar uchun ish dan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish tartibi joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun rasmiy ish kuni 11 soatgacha uzaytirildi, amalda esa bu ko'rsatkich 12–14 soatni tashkil etardi. Barcha mehnat ta'til lari bekor qilindi. Bunday choralar ishchi kuchini ko'paytirmasdan turib, ishlab chiqarish hajmini taxminan uchdan bir baravarga oshirish imkonini berdi. Ishchi kuchi yetishmasligi sababli ishlab chiqarishga idora xizmatchilari, uy bekalari va o'quvchilar keng jalb etildi. 1941-yil dekabrda harbiy korxonalarining barcha xodimlari safarbar etilgan deb e'lon qilindi va ular o'z ish joylariga qat'iy biriktirib qo'yildi. Korxonani o'zboshimchalik bilan tark etganlar 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi belgilangan edi. Shunga qaramay, O'zbekiston xalqi yuqoridan bo'ladigan tazyiqlarsiz ham, fashizm ustidan g'alaba qozonish yo'lida chin dildan, fidokorona mehnat qildi. Respublika hukumati 1941-yilning sentyabr–dekabr oylarida sanoatni qayta qurishning aniq rejalarini belgilab berdi. Kadrlar va xomashyo tanqisligiga qaramasdan, 1941-yil dekabrdayoq O'zbekistondagi 30 ga yaqin yirik korxonada mudofaa mahsulotlarini yetkazib bera boshladi. Zavod va fabrikalarda «Front brigadalari» tashkil etildi. Ilk shun day brigada 1941-yil oktyabrda «Toshselmash» zavodida tuzilgan bo'lsa, 1942-yil boshiga kelib ularning soni 1,5 mingtaga yetdi. 1942-yil ning o'rtalariga kelib, O'zbekistonda xalq xo'jaligini harbiy izga o'tka zish jarayoni asosan yakunlandi. Urushning ilk davridayoq respublika aholisidan 30 million so'm miqdorida pul, obligatsiya va qimmatbaho buyumlar to'plandi. Umu miy hisobda, urush yillarida O'zbekiston aholisi Mudofaa jamg'ar masiga 649,9 million so'm naqd pul hamda 55 kilogrammga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni taqdim etdi. Mazkur mablag'lar evaziga tank kolonnalari, aviatsiya eskadrilyalari va bro nepoyezdlar barpo etilib, frontga jo'natildi. O'zbekiston urush yillarida hududlari dushman tomonidan bosib olingan Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan jami bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ularning 200 ming nafari yetim qolgan bolalar edi. Mahalliy aholi ko'chib kelganlarga o'z xonadonlaridan joy berib, og'ir iqtisodiy sharoitga qaramay, ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak va poyabzal bilan ta'minladi. Evakuatsiya qilingan aholi uchun jami 135 ming kvadrat metr turar joy maydoni ajratildi. Shuningdek, ko'chib kelganlarni ishga joylashtirish bo'yicha ham keng ko'lamlı tadbirlar amalga oshirildi. Birgina Toshkent shahrining o'zida 1941–1942-yillar davomida qariyb 240 ming kishi xonadonlarga joylashtirilib, munosib ish bilan ta'minlandi. Bu jarayonlar o'zbek xalqining yuksak insonparvarligi va bag'rikengligining amaliy tasdig'i bo'ldi.

Xulosa: Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixida eng og'ir va eng murakkab sinovlardan biri bo'lib, bu davr O'zbekiston tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublika urush yillarida nafaqat

front ortidagi muhim strategik hudud, balki butun ittifoq miqyosida iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi tayanch markazlardan biri sifatida namoyon bo'lgan. O'zbek xalqi o'zining mehnatsevarligi, matonati va yuksak insonparvarlik fazilatlari bilan tarixiy sinovlarga bardosh bera oldi. Ko'chirib keltirilgan sanoat va madaniy muassasalarni tez fursatda qayta tiklash, front ehtiyojlarini uzluksiz ta'minlash, qishloq xo'jaligida fidokorona mehnat qilish hamda evakuatsiya qilingan xalqlarga mehr-oqibat ko'rsatish xalqimizning buyuk ma'naviy qudratini yaqqol namoyon etdi. Shu bilan birga, urush yillarida yuz bergan ijtimoiy sinovlar, insoniy yo'qotishlar va ruhiy iztiroblar jamiyat hayotining murakkab qatlamlarini ochib berdi. Biroq aynan shu og'ir sharoitlarda millatlararo hamjihatlik, birdamlik va o'zaro yordam kabi yuksak qadriyatlar yanada mustahkamlandi. Umuman olganda, Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonning o'rni va roli tarixiy adolat nuqtayi nazaridan qayta baholashni talab etadi. Bu davr xalqimizning nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham buyuk sinovlardan o'tib, insoniylik, sabr-toqat va fidoyilikning yuksak namunalarini namoyon etganini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv qo'llanma Toshkent 2025/
B.X.Boltayeva, R.K.O'dayev, A.K.Abdujalilov.